

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## SOTSILOGIYA FANINING IJTIMOY FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI

## МЕСТО СОЦИОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКИ В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ НАУК

## THE PLACE OF THE SCIENCE OF SOCIOLOGY IN THE SYSTEM OF SOCIAL SCIENCES

Mamasidiqov Akramjon Muxtor o'g'li<sup>1</sup>, Umarov Absalom Adilovich<sup>2</sup><sup>1</sup>Mamasidiqov Akramjon Muxtor o'g'li

– O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Madaniyat va san'at sohasi menejmenti mutaxassisligi magistranti.

<sup>2</sup>Umarov Absalom Adilovich

– O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori, sotsiologiya fanlari doktori.

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada sotsiologiya fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni va boshqa fanlar bilan o'z-aro bog'liq jihatlari haqida fikr-mulohozalar yuritiladi. Sotsiologiya fani jamiyatning bir butun tizim sifatida rivojlanishidagi o'rni va ijtimoiy munosabatlardagi ahamiyati va o'ziga xosliklari tahlil qilinadi. Sotsiologiya – ijtimoiy birliklar, tashkilotlar, jarayonlar va munosabatlarning yuzaga kelishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fanidir. Sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlarga tizimida ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish usullari, tahlillari va xulosalariga egadir.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается роль социологии в системе общественных наук и ее взаимосвязанные аспекты с другими науками. Анализируются роль науки социологии в развитии общества как целостной системы, ее значение и особенности в общественных отношениях. Социология – это наука, изучающая закономерности возникновения социальных единиц, организаций, процессов и отношений. Социология имеет методы сбора и анализа данных, анализа и выводов в системе других социальных наук.

**Abstract**

This article discusses the role of sociology in the system of social sciences and its interrelated aspects with other sciences. The role of the science of sociology in the development of society as a whole system and its importance and peculiarities in social relations are analyzed. Sociology is a science that studies the laws of occurrence of social units, organizations, processes and relations. Sociology has methods of data collection and analysis, analysis and conclusions in the system of other social sciences.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy fanlar, sotsiologiya, ijtimoiy munosabatlar, nazariya, jamiyat, fan, tahlil.

**Ключевые слова:** социальные науки, социология, социальные отношения, теория, общество, наука, анализ.

**Key words:** social sciences, sociology, social relations, theory, society, science, analysis.

**KIRISH**

Sotsiologiya boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, jamiyatni bir butun tizim sifatida hamda ijtimoiy munosabatlarni va shaxs xulq-atvorini aniq shart-sharoit bilan bog'liqlikda o'rganuvchi yagona fanidir. Sotsiologiya insonni ijtimoiy guruh vakili sifatida, ijtimoiy maqom va muayyan ijtimoiy rolni ifodalovchi konkret namoyanda sifatida o'rganadi. Inson yoki guruh oldida turgan muammolar u yoki bu darajada insoniy munosabatlar xarakteri, atrofdagilar bilan hamkorlikda yashay olish, qadriyatlarga va axloqiy me'yorlarga tayanish, ularni saqlab qolish, murosaga kirishish yoki murakkab nizoli vaziyatlarni hal qilish bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Inson oldida turgan muammolar qanchalik murakkab bo'lsa, ularni hal qilishda shaxsning o'zini anglab etishi, o'zi yashayotgan jamiyatni chuqur va atroflicha bilishi shunchalik katta ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar o'z sohalarini bilishlari bilan bir qatorda odamlarning qiziqishlari, manfaat va intilishlarini, ijtimoiy munosabatlar bilan yaqindan tanish bo'lishi kerak. Chunki ular asosida ijtimoiy guruhlar, hamjamiyatlar, jamiyat va umuman, butun dunyo hamjamiyati shakllanadi. Sotsiologiyani bilish murakkab ijtimoiy tizimlarni, ijtimoiy institutlarni tahlil qilishga tajriba va bilim bilan qurollanib, hayotni o'rganishga yordam beradi. Sotsiologik tafakkur orqali esa ijtimoiy hayotni ilmiy baholash va obyektiv informatsiya olish mumkin[1:3]. Madaniyat va san'at sohasida ham sotsiologiya fanining ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Sohada aniq statistik raqamlarni shakllantirish, to'g'ri taraqqiyot dasturlarini ishlab chiqishda mazkur fanning tahliliy xususiyatlari bosh omillardan biri sanaladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolaning asosiy metodologiyasi sotsiologiya fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rnini va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish bilan bog'liq masalalarni hal qilishda tizimli, vaziyatli yondashuvdan iboratdir. Ijtimoiy hayot masalalarini o'rganish doirasi kengayib borar ekan, sotsiologiya fanining o'rganish obyekti ham kengayib, chuqurlashib bormoqda. Sotsiologiyaning keyingi yillarda "Fanlar sotsiologiyasi", "Madaniyat sotsiologiyasi", "Boshqaruv sotsiologiyasi" kabi sohaları shakllandi. Bozor munosabatlari tarkib topa borishi bilan sotsiologiyaning iqtisodiyot, falsafa, huquq fanlari, etika, psixologiya, pedagogika, tarix, ekologiya kabi fanlar bilan aloqadorligi ortib bormoqda[2:11].

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sotsiologiya fani ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Birgina siyosiy fanning o'zi ham sotsiologik tadqiqotlar yordamida rivojlanib borishi haqiqat. Siyosiy fan insonning o'z-o'zini qanday boshqarishini tadqiq etadi. U rasmiy siyosiy tashkilotlar va unda shakllanadigan siyosiy xatti-harakatlar, shuningdek, hokimiyat falsafasi, jamiyatning ijtimoiy strukturasi o'rganadi. Sotsiologiya siyosatshunoslik uchun jamiyatda mavjud bo'lgan guruhlar o'rtasidagi munosabatlarga doir ko'plab ma'lumotlarni to'playdi.

Sotsiologiya va tarix fanlari jamiyat hayotini tadqiq etishga izchil yondashadi. Tarixchi faqat ishonarli ma'lumotlarni tanlar ekan, u o'tmish xulq-atvor va noyob voqealar bilan ish ko'radi. Tarixiy faktlarni to'plashda tarixchi sotsiologiya usullaridan ham keng foydalanadi. Shunday qilib, xususiy va umumiy sotsiologik fanlardan iborat bo'lgan zamonaviy sotsiologiya barcha ijtimoiy fanlar bilan bog'liq sotsiologiya ijtimoiy gumanitar fanlar iyerarxiyasida eng yuqori bosqichni egallaydi. Falsafa va tarix bilan birgalikda, u ijtimoiy fanlar tizimining umumslubiy negizini shakllantiradi[3:11]. Sotsiologiya mustaqil ijtimoiy fan sifatida o'z metodologiyasi va nazariyasiga egadir. Sotsiologiya fani umuminsoniy va milliy qadriyatlar mutanosibligiga tayanuvchi metodologiya asosida ish yuritadi. Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi mazmunini bir jihatdan xalqimizning tarixiy, ma'naviy qadriyatlari sanalmish Qur'oni Karim, Hadisi Muborak, sharqning ulug' allomalari Forobiy, Ibn Sino, Hazrati Bahouddin Naqshbandiy, At-Termiziy, Imom Al-Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy va boshqa ulug' mutafakkirlar asarlarida ilgari surilgan fikrlari tashkil etsa, ikkinchi jihatdan, nazariy ildizlarini antik davr va progressiv G'arb falsafasining buyuk namoyandalari asarlarida ilgari surilgan tadrijiy taraqqiyot qonuniyatlarini ifodalovchi umuminsoniy nazariyalar tashkil etadi. Ayni chog'da mazkur fan metodologiyasining muhim yo'nalishi sifatida inqilobiy dialektikadan tadrijiy taraqqiyot yo'lga tayanib ish yuritayotgan zamonamizning ulug' davlat arboblari qarashli fikrlar asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimida sotsiologiya alohida o'rinni egallaydi. Bu bir nechta holatlar bilan belgilanadi:

1. U jamiyat haqidagi, uning hodisalari va jarayonlari haqidagi fan hisoblanadi.
  2. U o'z ichiga umumiy sotsiologik nazariyalarni yoki hamma ijtimoiy- gumanitar fanlarning nazariya va metodologiyasi hisoblangan jamiyat nazariyasini oladi.
  3. U jamiyat va inson hayotiy faoliyatining turli tomonlarini o'rganuvchi ijtimoiy-gumanitar va sotsial sohani o'z ichiga oladi. Ya'ni, sotsiologiya - hayotning u yoki bu sohasini tadqiq etuvchi qonuniyatlardir.
  4. Inson va uning faoliyati, texnik va uslubiy jihatdan ishlab chiqilgan sotsiologik tadqiqotlar, gumanitar va ijtimoiy fanlar tomonidan zaruriy jihatdan o'rganiladi va hisobga olinadi.
- Falsafa, iqtisodiyot, tarix, siyosatshunoslik, psixologiya fanlari sotsiologiyaning shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Sotsiologiyaning falsafa bilan uzviy aloqasi shunda ko'rinadi-ki, umumsotsiologik nazariyalar va amaliy sotsiologik tadqiqotlar ma'lum metodologik asosga tayanadilar. Shunday asosni esa falsafa fani yaratadi. Sotsiologiya falsafaga nisbatan mustaqillikni shunga asoslanib e'lon qiladi-ki, u o'z oldiga ijtimoiy muammolarni, voqelikni ilmiy, anglash usuli asosida hal etish vazifasini qo'yadi.

Sotsiologiya statistika fani bilan ham mustahkam aloqada rivojlanadi. Bu ikki fanning o'zaro aloqalari shu qadar yaqinki, sotsiologiyaning rivojlanishini statistik yondashuvlarsiz tasavvur qilish qiyin. Sotsiologiya shuningdek, iqtisodiy nazariya, boshqaruv nazariyasi, tarix, pedagogika, huquqshunoslik, siyosatshunoslik kabi fanlar bilan ham mustahkam aloqada rivojlanadi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytilish mumkinki, sotsiologiya ijtimoiy birliklar, tashkilotlar, jarayonlar, munosabatlarning yuzaga kelishi, funkcionallashuvi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır. Jamiyatning rivojlanib borishi bilan sotsiologiyaning mazmuni ham yanada

boyib, takomillashib boradi. Yangi mazmundagi ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy qilib borishi, sotsiologiyaning o'rganish obyekti o'zgarib borishi bilan uning o'zi ham rivojlanib boradi. Tadqiqot usullari esa yanada mukammallashadi. Sotsiologiya milliy mafkurani shakllantirish, yaratish jarayonida alohida o'rin tutadi. Eskirib qolgan dunyoqarash, eskicha moddiy va ma'naviy munosabatlar o'z o'rnini yangisiga osonlikcha bo'shatib bermaydi. Buning uchun ma'lum vaqt kerak.

Sotsiologiya shu vaqt davomida ma'naviyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarni aniqlashga va ilmiy asosga ega bo'lgan tadbirlar ishlab chiqishga xizmat qiladi[4:12].

Sotsiologiyadagi taraqqiyotning evolyutsion tadrijiy usuli olam tuzilishining hamda uni anglashning ilmiy asoslangan yo'li sifatida bilishga yordam beradi. Ayni chog'da ijtimoiy fanlarga xos bo'lgan ehtiyoj va tasodif, umumiylik va xususiylik, miqdor va sifat, o'zgaruvchanlik va barqarorlik kabi umumfalsafiy kategoriyalarga ham mustahkam tayanib ish tutadi. Shu bilan birga, sotsiologiya va iqtisod fanlari o'rtasidagi aloqadorlik moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimot, ayriboshlash iste'mol jarayonlarini o'rganishda namoyon bo'ladi. Hozirda bozor munosabatlariga o'tish, mehnatga yangicha munosabatining shakllanishi jarayonida uning ahamiyati katta. Iqtisodiy nazariyaning ilmiy g'oyalari yuqorida tilga olingan sotsiologiya sohalari uchun metodologik asos bo'ladi. Sotsiologiya va tarix fanlari jamiyat hayotini izchil, tizimli tarzda o'rganadi. O'tmish tariximizni yaratishda tarixchi mutafakkirlar sotsiologiya usullaridan keng foydalanganlar (Masalan, at-Termiziy, Ismoil Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Xondamir). Sotsiologiya fani takomili umumiy va ijtimoiy psixologiya fanlari bilan ham yaqin hamkorlikda bo'lishni taqozo etadi. Zero, u yoki bu jamoadagi mehnat unumdorligini o'rganishni maqsad qilib sotsiologik tadqiqot o'tkazilayotganda mazkur jamoa tarkibidagi individlarning xatti-harakatlari motivlarini aniqlash, ularning temperamentlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy xulosa qilishda, odamlar bilan jamoada muomala qilishni tashkil etish va ijtimoiy xulqni boshqarishda, albatta, ijtimoiy psixologiya qonuniyatlarini chetlab o'tish mumkin emas. Shuningdek, ijtimoiy xulq-atvor va o'zaro munosabatlarning tipik guruhviy namoyon bo'lishi bilan emas, individlar xulq-atvorini o'rganuvchi psixologiyadan ham farqlanadi[5:102].

Sotsiologiya va pedagogika fanlari ham uzviy aloqadordir. Sotsiologiya madaniyat va san'at, falsafa, iqtisodiyot, tarix, siyosatshunoslik, psixologiya fanlari sotsiologiyaning shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda har qadamda yuqori va sifatli bilimga ega bo'lmasdan turib, jamiyat munosib kelajakka erisha olmaydi deb tan olinmoqda. Shu bilan birga zamonaviy fan, madaniyat va informatika sohasida erishilgan katta imkoniyatlar bilan ularni jamiyat hayotiga tadbir qilish o'rtasidagi katta uzilish faqatgina alohida bir davlatda emas, balki butun jahon miqyosida ham ta'lim sifati va darajasini oshirish va kengaytirish asosida bartaraf qilinishi mumkin. Ta'lim – shaxsning yashash faoliyati va ijtimoiylashtirishning turli tabaqalari rivojlanishi va shakllanishida hammadan ham boshlang'ich va shu sababdan zarur bo'lgan asosiy omildir. Shaxsning ijtimoiy statusini aniqlashda, jamiyat ijtimoiy tuzilishini takror ishlab chiqarish va rivojlanishida, ijtimoiy tartib va barqarorlikni qo'llab-quvvatlashda, ijtimoiy nazoratni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etish unga xosdir[6:118].

Sotsiologiya fani takomili umumiy va ijtimoiy psixologiya fanlari bilan ham yaqin hamkorlikda bo'lishni taqozo etadi. Zero, u yoki bu jamoadagi mehnat unumdorligini o'rganishni maqsad qilib sotsiologik tadqiqot o'tkazilayotganda mazkur jamoa tarkibidagi individlarning hatti-harakatlari motivlarini aniqlash, ularni temperamentlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy xulosa qilishda, odamlar bilan jamoada muomala qilishni tashkil etish va ijtimoiy xulqni boshqarishda, albatta, ijtimoiy psixologiya qonuniyatlarini chetlab o'tish mumkin emas. Sotsiologiya fani statistika fani bilan ayniqsa yaqin aloqada rivojlanadi. Har bir sotsiolog muayyan mavzuda sotsiologik tadqiqot o'tkazishni maqsad qilib qo'yar ekan, u albatta, shu sohadagi predmetning konkret holati va ahvolini, real voqelik manzarasini statistika manbalaridan topa oladi.

Keng ko'lamdagi konkret sotsiologik tadqiqotlarning sotsiolog tomonidan statistik idoralar xodimlar bilan hamkorlikda o'tkazilishi ijobiy samaralar berishi shubhasizdir. So'nggi yillarda sotsiologiya fanida konkret sotsiologik tadqiqotlar amaliy natijalarining hayotga faolroq va ko'proq tadbir etila borishi uning axloq, estetika, meditsina va pedagogika, rejalashtirish nazariyasi va boshqaruv singari fanlar bilan aloqasini yanada mustahkamlanmoqda.

Hozirgi kun sotsiologiyasini matematika fanisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki matematik usullarsiz sotsiologiya mavhum qarash bo'lib qoladi. Matematik usullar sotsiologiyaning empirik

tadqiqotlari darajasida egallagan o'zni juda muhim. Shunday qilib, murakkab umumiy va xususiy sotsiologik fanlardan iborat bo'lgan zamonaviy sotsiologiya tizimi uni ko'plab ijtimoiy-gumanitar, tabiiy va aniq fanlar bilan keng aloqalarni taqozo etadi. Bu aloqalar ham umummetodologik bosqichda, ham maxsus hususiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi, bu esa uni zamonaviy fanlar tizimidagi o'rnini aniqlab beradi. Sotsiologiya ijtimoiy-gumanitar fanlari ierarxiyasida eng yuqori bosqichni egallaydi. Falsafa va tarix bilan birgalikda, u ijtimoiy fanlar tizimining umummetodologik negizini shakllantiradi[7:33].

Sotsiologik tadqiqotlar davomida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni tahlil etish tadqiqotlar jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichning maqsadi natijalarning ma'nosini tushuntirib berish, fikrlarni umumlashtirish va yagona nazariy tizimga keltirishdan iborat.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, sotsiologiya fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'zni nihoyatda beqiyosdir. Lekin, bu jarayon haligacha to'laqonli tadbiiq qilingan yoki ilmiy manbalarda batasil yoritilgan deya olmaymiz. Sababi, sotsiologiya o'zining tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan birga zamonaviy ta'lim tizimida ham yaxshi rivojlanayotgan boshqa fanlar bilan mutonasib taraqqiyot etib bormoqda. Shunday ekan, sotsiologiya fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi va boshqa fanlar bilan ham rivojini yanada chuqurroq o'rgansak, ilmiy-amaliy jihatlarin tadbiiq qilsak, O'zbekistonning sotsiolog mutafakkirlari va olimlari qoldirgan ilmiy merosni faol o'rganib, yangi kashfiyotlari bilan fanni boyitgan holda jahon fani rivojiga munosib hissa qo'shish davr talabidir.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umarova R., Sarkisov B. Sotsiologiya. Toshkent Moliya instituti, 2004. 112 bet (Umarova R., Sarkisov B. Sociology. Tashkent Financial Institute, 2004. 112 pages).
2. Umarova R. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. –T.:Iqtisod-moliya, 2010. -108 bet (Umarova R. Sociology. Study guide. - T.: Economy-finance, 2010. -108 pages).
3. O'sha yerda (There).
4. Nosirxujayev S., Sultonov T, Tursunova S. Sotsiologiya (Leksiya toplami). – Toshkent, 2004 – 171 bet (Nosirxujayev S., Sultanov T, Tursunova S. Sociology (Lecture collection). - Tashkent: 2004 - 171 pages).
5. Bozorov M.J., Doliyev S.S., Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. – Samarqand: SamDChTI, 2017. – 126 bet (Bozorov M.J., Doliyev S.S., Sociology. Text of lectures. - Samarkand: SamDChTI, 2017. - 126 pages).
6. Aliqoriyev N., Ubaydullayeva R. Umumiy sotsiologiya. – Toshkent, Uchqun. 1999. – 177 b (Aliqoriyev N., Ubaydullayeva R. General sociology. - Tashkent, Uchkun. 1999).
7. Kalanov K., Sodiqov A., Sharipov M., Alimboyeva B., Kurbanaliyeva X. Sotsiologiya: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent: TDIU, 2017. 273 bet (7. Kalanov K., Sodikov A., Sharipov M., Alimboyeva B., Kurbanaliyeva H. Sociology: a textbook for students of higher educational institutions. Tashkent: TDIU, 2017. 273 pages).
8. Bozorov M.J., Doliyev S.S., Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. – Samarqand: SamDChTI, 2017. – 126 bet (Bozorov M.J., Doliyev S.S., Sociology. Text of lectures. - Samarkand: SamDChTI, 2017. - 126 pages).